MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

"SHAXS INTEGRATIV RIVOJLANISHI PARADIGMASIDA ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI"

"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ В ПАРАДИГМЕ ИНТЕГРАТИВНОГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ"

"CURRENT PROBLEMS OF MODERN PSYCHOLOGY IN THE PARADIGM OF INTEGRATIVE PERSONAL DEVELOPMENT"

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

2026-yil 22-Aprel

"Shaxs integrativ rivojlanishi paradigmasida zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolari"

UO'K: 152.3

"Shaxs integrativ rivojlanishi paradigmasida zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami (22-aprel 2026-yil) – T.: Toshkent 2026. 2005-b.

Mazkur to'plamga 2026-yil 22-aprel kuni O'zMPU Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta'lim fakulteti "Psixologiya" kafedrasida "Shaxs integrativ rivojlanishi paradigmasida zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilarining ma'ruza materiallari kiritilgan. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plamida psixologiya sohasidagi respublikamizdagi taniqli olim va mutaxassislar, o'rta umumta'lim maktablarining o'qituvchilari, tadqiqotchilar, magistrlar hamda iqtidorli talabalarning amaliy psixologiya, shaxs integrativ rivojlanishi paradigmasida zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammosi va uning yechimlari bo'yicha yangicha yondashuvlar, amaliy yechimlarga bag'ishlangan maqolalari o'rin olgan.

Mas'ul muharrir:	*Tillashayxova X.A.*	*Nizomiy nomidagi O'zMPU "Psixologiya" kafedrasi v.b professori, psixol.f.d.*
Tahrir hay'ati a'zolari:	*Akramova E.A*	*Nizomiy nomidagi O'zMPU "Psixologiya "kafedrasi professori psixol.f.d.*
	Jumaeva S.N	*Nizomiy nomidagi O'zMPU "Psixologiya "kafedrasi professori psixol.f.d.*
	Abdullayeva R.M.	*Nizomiy nomidagi O'zMPU "Psixologiya "kafedrasi dotsenti, psixol.f.n.*
	Jumakulova D.Z	*Nizomiy nomidagi O'zMPU "Psixologiya" kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*
	Kamarukova A.B.	*Nizomiy nomidagi O'zMPU "Psixologiya "kafedrasi o'qituvchisi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*
Texnik mas'ul:	*Toshmatov B.E.*	*Nizomiy nomidagi O'zMPU "Psixologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*
	Yerkayev S.S.	*Nizomiy nomidagi O'zMPU "Psixologiya "kafedrasi o'qituvchisi*
Taqrizchilar:	*Mirqayeva E.O.*	*Nizomiy nomidagi O'zMPU Pedagogika" kafedrasi mudiri, p.f.d., professor*
	Nazmutova Sh.K.	*Toshkent davlat tibbiyot universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti psixol.f.d*

To'plamga kiritilgan maqola va tezislardagi dalil, raqam va ma'lumotlarning to'g'riligiga mualliflar mas'uldirlar.

Anjuman materiallari O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2026 yil 24-apreldagi 4-sonli bayoni bilan nashrga tavsiya etilgan.

INKLYUZIV TA'LIM: NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARNI UMUMTA'LIM MAKTABLARIGA JALB ETISHDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR

Sh.Xikmatova
Oriental Universiteti o'qituvchisi

Valiyeva Mubinabonu Furqat qizi
Oriental Universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida nutqida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablariga jalb etish jarayonida yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinadi. Bunday o'quvchilarning ta'lim jarayoniga moslashuvi, pedagoglarning maxsus bilim va ko'nikmalarining yetarli emasligi, logopedik yordamning yetishmasligi hamda o'quv muhitining to'liq moslashtirilmaganligi, Shuningdek, nutqida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiylashuvi, tengdoshlari bilan muloqoti va ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar, ta'lim jarayoniga moslashuv, logopedik yordam, inklyuziv muhit.

Kirish. Hozirgi kunda inklyuziv ta'lim tizimi ta'lim siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi barcha ta'limni boshlash imkoniyatiga ega bo'lgan bolalar, shu jumladan nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar, alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni umumta'lim jarayoniga qamrab olib, o'quvchilarga teng ta'limni ta'minlashdir. Biroq amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, nutqida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablariga muvaffaqiyatli integratsiya qilish jarayonida turli xil muammolar yuzaga keladi. Umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning aksariyati maxsus pedagogika bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emaslar. Shu sababdan ularda nutqida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bilan samarali ish olib borishda turli muammolar yuzaga keladi. Bundan tashqari, umumta'lim maktablarida logoped, psixolog kabi mutaxassislar yetishmasligi ham muammoni yanada murakkablashtiradi. Umumta'lim maktablarida nutqida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar psixologik to'siqlar, bullinglar va individual yondashuvning yetishmasligi kabi muammolarga duch keladilar. Nutqida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar tengdoshlari bilan muloqotga kirishishlarida qiyinchiliklar seziladi. Bu holatlar ularda psixologik zo'riqishlar, o'ziga ishonchsizlik va tortinchoqlikni yuzaga keltiradi. Ayrim hollarda boshqa o'quvchilar tomonidan bunday bolalar masxara qilinib, bullinglar ham kuzatiladi. Bunday holatlar ularning nafaqat o'qishiga, balki, umumiy rivojlanishlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Inklyuziv ta'lim samaradorligi ko'p jihatdan individual yondashuv dasturlari bilan bog'liq. Lekin amaliyotda ko'pincha nutq nuqsonining turi va darajasini hisobga olagan holda ishlab chiqilgan individual korreksion dasturlar yetarli darajada qo'llanilmaydi.Dars jarayonida nutqni rivojlantirishga qaratilgan maxsus metodikalar va mashqlar yetarli darajada foydalanilmaydi. Xususan, xotira, tafakkur va mayda motorikani rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimli ravishda tashkil etilmagan. Bu esa nutqdagi nuqsonlarni bartaraf etish jarayonini sekinlashtiradi va o'quvchilarning ta'limni o'zlashtirishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Inklyuziv ta'limda hamkorlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta'lim samaradorligi o'qituvchi, ota-ona va mutaxassislar o'rtasidagi hamkorlikka bevosita bog'liq. Ammo ko'plab holatlarda bu hamkorlik yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Natijada bolaga ko‘rsatiladigan pedagogik va psixologik yordam uzviy bo‘lmay qoladi.

Xulosa. Nutqida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni umumta’lim maktablariga muvaffaqiyatli jalb etish uchun kompleks yondashuv zarur. Bunda pedagoglarning malakasini oshirish, maxsus mutaxassislar bilan ta’minlash, individual ta’lim dasturlarini ishlab chiqish hamda qulay psixologik muhit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish uchun jamiyatda bag‘rikenglik muhitini shakllantirish, ota-onalar va pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Faqat shundagina nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning to‘laqonli rivojlanishi va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Acta Education. ActaEducation. Issue 01, 2024.
2. UNESCO. Inclusive Education Guidelines.
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Inklyuziv таълим бўйича ҳужжатлар.
4. Илмий мақолалар ва педагогика дарсликлари.

TA’LIMDA KAIZEN TEXNOLOGIYASI VA UNING PSIXOLOGIK TA’SIRI

Eshonkulova Shaxnoza Boyto’rayevna

O’zMPU Testologiya va bilimlarni baholash mutaxassisligi 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya. Maqolada ta’lim jarayonida psixologik jarayonlar va ijtimoiy muhitning shaxs rivojlanishiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlili, Kaizen texnologiyasining ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqot natijalari psixologik omillar va zamonaviy yondashuvlardan samarali foydalanish muhimligini ko‘rsatadi.

Kalit so’zlar. Ta’lim, psixologik jarayonlar, ijtimoiy muhit, motivatsiya, tafakkur, o‘quv faoliyati, innovatsion yondashuv, Kaizen texnologiyasi, uzluksiz rivojlanish.

Hozirgi globallashuv va axborotlashuv davrida ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ta’lim jarayonining samaradorligi nafaqat o‘qitish metodlariga, balki unda ishtirok etuvchi shaxslarning psixologik xususiyatlari va ijtimoiy muhitiga ham bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, o‘quvchilarning bilish faoliyati, motivatsiyasi, muloqot ko‘nikmalari hamda ruhiy holati ta’lim natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Prizentetimiz ta’kidlaganlaridek, **“Yoshlarimiz qanday bilim va tarbiya olsa, kelajagimiz shunga bog‘liq”** [1]. Shu bois ta’lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki sog‘lom psixologik va ijtimoiy muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayoni inson hayotining muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, unda nafaqat bilim olish, balki shaxs sifatida shakllanish ham amalga oshadi. Bu jarayonda psixologik omillar muhim rol o‘ynaydi Avvalo, psixologik jarayonlar deganda insonning bilish, his-tuyg‘u va xulq-atvoriga oid ichki faoliyatlari tushuniladi [2]. Bularga idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq kabi jarayonlar kiradi. Ta’lim jarayonida aynan shu psixologik omillar orqali o‘quvchi yangi bilimlarni qabul qiladi, qayta ishlaydi va amaliyotda qo‘llaydi. Mazkur muhit o‘quvchining psixologik rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.